



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN FORMING AN INCLUSIVE SOCIETY

Abduraxmonov Asadullo Askarovich

Independent Researcher, Fergana State University

Abstract

This thesis examines the role and socio-philosophical essence of social entrepreneurship in fostering an inclusive society. It argues that social entrepreneurship is not merely an activity that combines economic benefit with a social mission, but also an effective mechanism for expanding equal opportunities, reducing social exclusion, strengthening the agency of vulnerable social groups, and promoting social solidarity. The study is methodologically grounded in A. Sen's capability approach, J. Rawls' theory of justice, M. Yunus' concept of social business, the theory of social entrepreneurship developed by J. Defourny and M. Nyssens, as well as the perspectives of Uzbek scholars on social justice and civil society. The research identifies the economic, axiological, integrative, and agency-building functions that define the inclusive nature of social entrepreneurship. The principle of **"opportunity-creating inclusion"** is proposed as an integrative concept reflecting the socio-philosophical essence of social entrepreneurship.

Keywords

social entrepreneurship, inclusive society, social inclusion, social justice, equal opportunities, human dignity, social innovation, social solidarity, agency, social value.

IJTIMOIIY TADBIRKORLIKNING INKLYUZIV JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHDAGI IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI

Abduraxmonov Asadullo Askarovich

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi





**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

Annotatsiya. Mazkur tezisda ijtimoiy tadbirkorlikning inklyuziv jamiyatni shakllantirishdagi o'рни va ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy manfaat bilan ijtimoiy missiyani uyg'unlashtiruvchi faoliyat bo'lishi bilan birga, jamiyatda imkoniyatlar tengligini kengaytirish, ijtimoiy chetlanishni kamaytirish, zaif ijtimoiy guruhlarining subyektligini kuchaytirish va ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish mexanizmi ekanligi asoslanadi. A. Senning imkoniyatlar yondashuvi, J. Roulzning adolat konsepsiyasi, M. Yunusning ijtimoiy biznesga oid qarashlari, J. Defourny va M. Nyssensning ijtimoiy tadbirkorlik nazariyasi hamda o'zbek olimlarining ijtimoiy adolat va fuqarolik jamiyatiga oid qarashlaridan metodologik asos sifatida foydalaniladi. Ijtimoiy tadbirkorlikning inklyuziv mohiyatini belgilovchi iqtisodiy, aksiologik, integrativ va subyektlashtiruvchi funksiyalar ajratib ko'rsatiladi. **"Imkoniyat yaratuvchi inklyuziya"** ijtimoiy tadbirkorlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ifodalovchi integrativ tamoyil sifatida ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, inklyuziv jamiyat, ijtimoiy inklyuziya, ijtimoiy adolat, imkoniyatlar tengligi, inson qadr-qimmati, ijtimoiy innovatsiya, ijtimoiy birdamlik, subyektlik, ijtimoiy qiymat.

Аннотация. В настоящих тезисах анализируются роль и социально-философская сущность социального предпринимательства в формировании инклюзивного общества. Обосновывается, что социальное предпринимательство представляет собой не только деятельность, сочетающую экономическую выгоду с социальной миссией, но и эффективный механизм расширения равенства возможностей, сокращения социальной эксклюзии, укрепления субъектности социально уязвимых групп населения и развития социальной солидарности. В качестве методологической основы исследования используются подход возможностей А. Сена, концепция справедливости Дж. Ролза, взгляды М. Юнуса



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

на социальный бизнес, теория социального предпринимательства Ж. Дефурни и М. Ниссенс, а также научные взгляды узбекских ученых по вопросам социальной справедливости и гражданского общества. Выделяются экономическая, аксиологическая, интегративная и субъектно-формирующая функции, определяющие инклюзивную сущность социального предпринимательства. Принцип «**инклюзии, создающей возможности**» предлагается в качестве интегративного концепта, раскрывающего социально-философскую сущность социального предпринимательства.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, инклюзивное общество, социальная инклюзия, социальная справедливость, равенство возможностей, человеческое достоинство, социальные инновации, социальная солидарность, субъектность, социальная ценность.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy o‘rishning o‘zi ijtimoiy farovonlikning yetarli mezonini bo‘la olmaydi. Jamiyatda yaratilayotgan moddiy va ijtimoiy imkoniyatlardan turli guruhlarining qay darajada foydalanishi, insonning ta’lim, mehnat, ijtimoiy xizmatlar va jamoat hayotida ishtirok etish imkoniyatlari taraqqiyotning sifat ko‘rsatkichlariga aylanmoqda. Shu jihatdan inklyuziv jamiyat konsepsiyasi shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy imkoniyati, iqtisodiy holati yoki boshqa ijtimoiy omillardan qat’i nazar, jamiyat hayotida munosib ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga yo‘naltirilgan paradigma sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda ijtimoiy tadbirkorlik alohida o‘rin tutadi. Uning mohiyatini faqat foydaning bir qismini ijtimoiy maqsadlarga sarflash yoki ehtiyojmandlarga yordam ko‘rsatish bilan cheklash yetarli emas. Ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish orqali muayyan ijtimoiy muammoning barqaror yechimini yaratishga intiladi. Shu sababli uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati **“foйда olish” va “ijtimoiy**





**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

manfaat yaratish” o‘rtasidagi yangi munosabatni shakllantirishida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy tadbirkorlik fenomenining inklyuziv jamiyat bilan bog‘liqligini tahlil qilishda asosiy savol shundan iborat: ijtimoiy tadbirkorlik ehtiyojmand shaxsga shunchaki yordam beradimi yoki uning jamiyatning faol va mustaqil subyekti sifatidagi imkoniyatlarini kengaytiradimi? Ushbu farq muammoning ijtimoiy-falsafiy mazmunini belgilaydi.

Ijtimoiy tadbirkorlikning falsafiy mohiyatini tushunishda, avvalo, iqtisodiy faoliyatning maqsadi haqidagi an‘anaviy tasavvurlarni qayta ko‘rib chiqish zarur. Klassik biznes modelida iqtisodiy qiymat va foyda muhim mezon hisoblangan bo‘lsa, ijtimoiy tadbirkorlikda iqtisodiy barqarorlik ijtimoiy qiymat yaratish vositasiga aylanadi. J. Dees ijtimoiy tadbirkorni ijtimoiy sektordagi o‘zgarish agenti sifatida tavsiflab, uning asosiy belgilaridan biri ijtimoiy qiymat yaratish missiyasini qabul qilish ekanini ta’kidlaydi[1]. Bu nuqtai nazardan ijtimoiy tadbirkorlik oddiy biznes va xayriya o‘rtasidagi oraliq faoliyat emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy ratsionallikning o‘zaro uyg‘unlashuvini ifodalovchi alohida ijtimoiy amaliyotdir.

M. Yunus ilgari surgan ijtimoiy biznes konsepsiyasida ham iqtisodiy faoliyatning inson va jamiyat muammolarini hal etishga yo‘naltirilishi markaziy o‘rin egallaydi. Uning yondashuvida biznesning imkoniyatlaridan kambag‘allik va boshqa ijtimoiy muammolarga qarshi kurashda foydalanish mumkinligi asoslanadi [2]. Bu esa tadbirkorlikni faqat individual iqtisodiy manfaatni amalga oshirish vositasi sifatida emas, ijtimoiy mas’uliyat va hamkorlik instituti sifatida tushunish imkonini beradi. Biroq ijtimoiy tadbirkorlikning inklyuziv mohiyatini to‘liq anglash uchun “yordam” va “imkoniyat yaratish” tushunchalarini farqlash muhim. Yordam oluvchi inson ko‘pincha ijtimoiy siyosatning obyekti bo‘lib qolishi mumkin. Imkoniyat berilgan shaxs esa o‘z hayotiga daxldor qarorlarni qabul qiluvchi, mehnat qiluvchi va ijtimoiy qiymat



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

yaratuvchi subyektga aylanadi. A. Senning imkoniyatlar (*capability*) yondashuvi mazkur farqni tushuntirish uchun muhim metodologik asos beradi. Sen taraqqiyotni insonlarning real erkinliklari va o'zlari qadrlaydigan hayot tarzini amalga oshirish imkoniyatlarining kengayishi bilan bog'laydi [3]. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tadbirkorlikning inklyuziv samarasi qancha moddiy yordam ko'rsatilgani bilangina emas, balki **insonning real imkoniyatlari qanchalik kengaygani** bilan baholanishi kerak. Masalan, ijtimoiy jihatdan zaif guruh vakiliga bir martalik moddiy yordam ko'rsatish uning muayyan ehtiyojini qondiradi. Biroq unga kasbiy ko'nikma berish, mos ish o'rni yaratish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish yoki bozorda mustaqil faoliyat yuritish imkonini ta'minlash uning ijtimoiy maqomi va subyektligini o'zgartiradi. Birinchi holatda ehtiyoj qondirilsa, ikkinchi holatda **imkoniyat yaratiladi**.

J. Roulzning adolat nazariyasi ham inklyuziv ijtimoiy tadbirkorlikning aksiologik asoslarini tushuntirish imkonini beradi. Roulz ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklarni jamiyatning eng kam imkoniyatga ega qatlamlari manfaatlari bilan bog'liq holda baholaydi [4]. Mazkur metodologik pozitsiyadan ijtimoiy tadbirkorlik bozor mexanizmlarining ijtimoiy jihatdan zaif guruhlarni chetda qoldiruvchi ayrim oqibatlarini yumshatadigan hamda ularni iqtisodiy munosabatlarga faol kiritadigan institut sifatida namoyon bo'ladi. Shu yerda **formal tenglik** bilan **real imkoniyatlar tengligi** o'rtasidagi farq alohida ahamiyat kasb etadi. Formal jihatdan barcha shaxslarga mehnat qilish yoki tadbirkorlik bilan shug'ullanish huquqi berilishi mumkin. Ammo boshlang'ich resurslar, bilim, ijtimoiy kapital, jismoniy imkoniyatlar yoki infratuzilmadan foydalanishdagi farqlar sabab bu huquqdan foydalanish imkoniyati hamma uchun bir xil bo'lmaydi. Inklyuziv ijtimoiy tadbirkorlik ana shu tafovutni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

J. Defourny va M. Nyssens ijtimoiy korxonalarni o’rganishda ularning iqtisodiy maqsadlari bilan bir qatorda ijtimoiy missiyasi va boshqaruv xususiyatlariga e’tibor qaratadilar [5]. Bu yondashuv ijtimoiy tadbirkorlikning inklyuziv jamiyatdagi rolini faqat yaratilgan ish o’rinlari soni bilan o’lchash yetarli emasligini ko’rsatadi. Muhimi, iqtisodiy faoliyat jarayonida manfaatdor guruhlarining ovozi, ishtiroki va qaror qabul qilish imkoniyatlari qay darajada ta’minlanganidir.

O’zbek falsafiy tafakkurida inson manfaatlari, ijtimoiy adolat, ma’naviy mas’uliyat va fuqarolik jamiyati masalalari jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlari sifatida tahlil qilingan. E. Yusupov inson kamolotini uning jamiyatdagi faolligi, ma’naviy mas’uliyati va ijtimoiy munosabatlarda o’z imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishi bilan bog’laydi [6]. Mazkur yondashuv ijtimoiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligi bilan birga insonning ijtimoiy faolligi va qadr-qimmatini ta’minlashdagi rolini baholash zarurligini ko’rsatadi. Ijtimoiy tadbirkorlikning inklyuziv jamiyatni shakllantirishdagi mohiyatini shu asosda **to’rtta o’zaro bog’liq funksiya** orqali tavsiflash mumkin. Birinchisi — **iqtisodiy funksiya**, ya’ni daromad va bandlik imkoniyatlarini yaratish. Ikkinchisi — **aksiologik funksiya**, inson qadr-qimmatini, adolat va teng imkoniyat qadriyatlarini iqtisodiy amaliyotga kiritish. Uchinchisi — **integrativ funksiya**, ijtimoiy chetlanish holatidagi guruhlarini iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarga qo’shish. To’rtinchisi — **subyektlashtiruvchi funksiya**, yordam oluvchini mustaqil faoliyat yurituvchi va ijtimoiy qiymat yaratuvchi subyektga aylantirishdir. Aynan to’rtinchi funksiya ijtimoiy tadbirkorlikni an’anaviy xayriya modelidan falsafiy jihatdan farqlash imkonini beradi. Xayriya ko’pincha mavjud ehtiyojga javob bersa, inklyuziv ijtimoiy tadbirkorlik ushbu ehtiyojni keltirib chiqarayotgan imkoniyatlar cheklanganligini kamaytirishga intiladi. Shu asosda **“imkoniyat yaratuvchi inklyuziya”** tushunchasini ijtimoiy tadbirkorlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ifodalovchi integrativ tamoyil sifatida



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

taklif qilish mumkin. Mazkur tushuncha inklyuziyani shaxsni mavjud tizimga shunchaki qo‘shish emas, uning iqtisodiy, ijtimoiy va fuqarolik subyektligini amalga oshirishi uchun real imkoniyatlar yaratish jarayoni sifatida tushunishni nazarda tutadi.

Uning konseptual mantig‘ini **“ijtimoiy muammo → imkoniyat yaratish → iqtisodiy faollik → subyektlilik → ijtimoiy integratsiya → inklyuziv jamiyat”** shaklida ifodalash mumkin.

Xulosa. Ijtimoiy tadbirkorlikning inklyuziv jamiyatni shakllantirishdagi ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish quyidagi xulosalarni ilgari surish imkonini beradi.

Birinchidan, ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi an’anaviy qarama-qarshilikni yumshatib, iqtisodiy faoliyatni ijtimoiy qiymat yaratish mexanizmiga aylantiradi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tadbirkorlikning inklyuziv samarasi yordam ko‘rsatish hajmi bilan emas, shaxsning real ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish darajasi bilan baholanishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, inklyuzivlik formal tenglikdan real imkoniyatlar tengligiga o‘tishni talab qiladi. Shu ma’noda ijtimoiy tadbirkorlik resurs va imkoniyatlardan foydalanishdagi ijtimoiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiluvchi institut sifatida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy tadbirkorlikning iqtisodiy, aksiologik, integrativ va subyektlashtiruvchi funksiyalari o‘zaro birligi uning inklyuziv jamiyatni shakllantirishdagi ijtimoiy-falsafiy mohiyatini belgilaydi.

Beshinchidan, taklif etilgan “imkoniyat yaratuvchi inklyuziya” tamoyili ijtimoiy tadbirkorlikning maqsadini shaxsga tayyor ijtimoiy ne’mat taqdim etishdan uning mustaqil iqtisodiy va ijtimoiy faoliyat yuritish imkoniyatlarini yaratishga yo‘naltiradi. Shu sababli ijtimoiy tadbirkorlik inklyuziv jamiyatda nafaqat iqtisodiy faoliyat shakli,



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

balki insonni ijtimoiy yordam obyektidan ijtimoiy taraqqiyot subyektiga aylantiruvchi transformativ institut sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dees J.G. The Meaning of Social Entrepreneurship. Stanford University, 1998 (rev. 2001). – P. 1–5.
2. Yunus M. *Building Social Business: The New Kind of Capitalism that Serves Humanity's Most Pressing Needs*. New York: PublicAffairs, 2010. – P. 1–12.
3. Sen A. *Development as Freedom*. New York: Alfred A. Knopf, 1999. – P. 18–25.
4. Rawls J. *A Theory of Justice*. Revised ed. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1999. – P. 52–65.
5. Defourny J., Nyssens M. Conceptions of Social Enterprise and Social Entrepreneurship in Europe and the United States: Convergences and Divergences // *Journal of Social Entrepreneurship*. –2010. – Vol. 1, No. 1. – P. 32–53.
6. Yusupov E. *Inson kamolotining ma'naviy asoslari*. –Toshkent: Universitet, 1998.